



## MUSIQA MADANIAYTI DARSLARIDA «ZINAMA - ZINA» TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH

*QDPI Musiqa ta'limi kafedrası dotsenti*

*S. M. Asqarova,*

*1-bosqich talabasi*

*Maftuna Yo'ldasheva*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Pedagogik texnologiyaning tub mohiyati - kafolatlangan natijaga yo'nalganligi, "Zinama-zina" texnologiyasi, uning tavsifi, qo'llanishi, mashg'ulotda qo'llaniladigan vositalar, o'tkazish tartibi va misollar haqida yoritilgan

**Kalit so'zlar:** Pedagogik texnologiya, "Zinama-zina" texnologiyasi, uning tavsifi, qo'llanishi, 2-sinf musiqa madaniyati darsi, 4-sinf musiqa madaniyati darsi.

Pedagogik texnologiyaning tub mohiyati - kafolatlangan natijaga yo'nalganligi. Har bir texnologiya, shu jumladan, pedagogik texnologiya ham o'zining mezonlariga ega: kontseptuallik, tizimlilik, samaradorlik, boshqaruvchanlik, qayta tiklanuvchanlik. Pedagogik texnologiyani o'quv jarayonida umumpedagogik, xususiy-metodik, modulli yo'nalishlarda qo'llash darajalari aniqlangan. Har qanday texnologiya biron bir goyani, ilmiy fikr yoki nazariyani hayotga tatbiq etib, uni amalga oshirishga yo'naltirilgan. Shu bois pedagogik texnologiya fan va amaliyot oraligidagi o'rinni egallaydi.

«Zinama - zina» texnologiyasining tavsifi: Ushbu mashg'ulot o'quvchilarni o'tilgan yoki o'tilishi kerak bo'lgan mavzu bo'yicha yakka va kichik jamoa bo'lib fikrlash hamda hotirlash, o'zlashtirilgan bilimlarni yodga tushirib, to'plangan fikrlarni umumlashtira olish va ularni yozma, rasm, chizma kurinishida ifodalay olishga o'rgatadi. Bu texnologiya o'quvchilar bilan bir guruh, ichida yakka holda



yoki guruhlarga ajratilgan holda yozma ravishda o'tkaziladi va taqdimot qilinadi.[1]

«Zinama - zina» texnologiyasining maqsadi: O'quvchilarni erkin, mustaqil va mantiqiy fikrlashga, jamoa bo'lib ishlashga, izlanishga, fikrlarni jamlab ulardan nazariy va amaliy tushuncha hosil qilishga, jamoaga o'z fikri bilan ta'sir eta olishga, uni ma'qullashga, shuningdek, mavzuning tayanch tushunchalariga izoh, berishda egallagan bilimlarini qo'llay olishga o'rgatish.

«Zinama - zina» texnologiyasining qo'llanishi: Musiqa madaniyati darslarida yakka tartibda yoki kichik guruhlarda o'tkazish hamda nazorat darslarida qo'llanilishi mumkin.

Mashg'ulotda qo'llaniladigan vositalar: A-3, A-4 *formatdagi* qog'ozlarda tayyorlangan (mavzuni ajratilgan kichik mavzuchalar soniga mos) chap tomoniga kichik mavzular yozilgan tarqatma materiallar, flomaster (yoki rangli qalam)lar.

Mashg'ulotni o'tkazish tartibi:

- o'qituvchi o'quvchilarni mavzular soniga qarab 3-5 kishidan iborat kichik guruhlarga ajratadi (guruhlar soni 4 yoki 5 ta bo'lgani ma'qul);
- o'quvchilar mashg'ulotning maqsadi va uning o'tkazilish tartibi bilan tanishtiriladi. Har bir guruhga qog'ozning chap qismida kichik mavzu yozuvi bo'lgan varaqlar tarqatiladi;
- o'qiguvchi guruh a'zolarini tarqatma materialda yozilgan kichik mavzular bilan tanishishlarini va shu mavzu asosida bilganlarini flomaster yordamida qog'ozdagi bo'sh joyiga jamoa bilan birgalikda fikrlashib yozib chiqish vazifasini beradi va vaqt belgilaydi;
- guruh, a'zolari birgalikda tarqatma materialda berilgan kichik mavzuni yozma (yoki rasm, yoki chizma) ko'rinishida ifoda etadilar. Bunda guruh, a'zolari kichik mavzu bo'yicha imkon boricha to'laroq ma'lumot berishlari kerak bo'dadi.



- tarqatma materiallar to'ldirilgach, guruh a'zolaridan bir kishi taqdimot qiladi. Taqdimot vaqtida guruhlar tomonidan tayyorlangan material, albatta, sinf doskasiga mantiqan tagma-tag (zina shaklida) ilinadi;

- o'qituvchi guruhlar tomonidan tayyorlangan materiallarga izoh berib, ularni baholaydi va mashg'ulotni yakunlaydi.

**Izoh:** o'quv mashg'ulotining bunday tashkil etilishi o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, o'tilgan va o'zlashtirilgan mavzularni eslashga, ularni yozma (yoki rasm, chizma kurinishida) bayon etishga, fikrlarni umumlashtirishga o'rgatadi

Masalan 2-sinf 1- chorak, 1-dars O'zbekiston Respublikasi davlat madhiyasini o'rgatishda ushbu uslubdan quyidagicha foydalanish mumkin.

O'quvchilarni 4 kishidan tashkil topgan kichik guruhlariga ajratib olinadi.

O'qutuvchi: Hurmatli o'quvchilar bugun siz bilan O'zbekiston respublikasi davlat madhiyasini o'rganamiz. Siz bu asarni albatta eshitgansiz kuylagansiz. Hozir sizlarga varog'lar berib chiqaman, siz esa bunda yozilgan kichik mavzularga o'rtoqlaring bilan birga shu mavzu haqida bilganlaringizni zinama- zina joylashtirib chiqasiz.(A4 formatdagi qog'ozlar tarqatiladi)

1-guruh uchun

"O'zbekiston"  
-Mening vatanim  
-men tug'ilgan joy

2-guruh uchun

"Mustaqillik"

3- guruh uchun

"Mustaqillik  
bayrami"

4- guruh uchun

"O'zbekiston  
bayrog'i"

5-guruh uchun

"O'zbekiston  
gerbi"

6-guruh uchun

"Mening  
madhiyam"



Barcha guruh o'z vazifalarini bajarib bo'lgandan so'ng, guruhdan bir kishi chiqib yozilganlarni izohlab beradi. O'qituvchi uni doskaga quyidagicha joylashtiradi. O'qituvchi xilosa qiladi va asarni kiylash jarayoniga o'tadi.

"Mening  
madhiyam"

"O'zbekiston gerbi"

"O'zbekiston  
bayrog'i"


"Mustaqillik  
bayrami"

"Mustaqillik"

"O'zbekiston"

Bunda tashqari ushbu texnologiyani 4-sinf 1-chorak 4- dars "Pauza" mavzusida qo'llash mumkin. O'quvchilarga pauzalar rasmlarini zinama-zina joylashtirib chiqishini aytiladi, ular "Kim chaqqon" o'yini orqali pauzalarni joylashtirib chiqadilar.





Xulosa o`rnida shuni aytish mumkinki, har bir pedagogik texnologiya ham o`zining mezonlariga egadir va darsning tuzilishi, maqsadiga qarab to`g`ri tanlangan texnologiyalar dars sifat va samaradorligini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. N.N. Azizxo`jayeva. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat O`quv qo`llanma : O`zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adsbijot jamg`armasi nashriyoti, 2006. 160 bet.
2. Asqarova "Musiqqa o`qitish texnologiyalari va loyihalash". O`quv qo`llanma. Qo`qon. "ART PRESS" 2024, 174 bet
3. Аскарова, Сохибахон Мухаммаджоновна. "Особенности певческого мастерства школьников в подростковом возрасте." *Oriental Art and Culture* 4.1 (2023): 874-878.
4. Askarova, S. "DEFECTS IN THE VOICE OF PUPILS AND WAYS TO ELIMINATE IT." *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal* 10.11 (2022): 418-420.
5. Askarova, S. M. "EDUCATION OF SINGING SKILLS IN PRESCHOOL CHILDREN." (2023).
6. Asqarova, S. "XOR VA XORSHUNOSLIK FANI DARSLARIDA KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISH." *Eurasian Journal of Academic Research* 2.7 (2022): 62-65.
7. Sohibaxon, Askarova. "PECULIARITIES OF ORGANIZATION OF MUSICAL-RHYTHMIC ACTIVITY IN MUSIC CULTURE



CLASSES." *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal* 11.3 (2023): 536-539.

8. Mukhammadzhonovna, Askarova Sohobakhon, and Kusherbayev Zhanbolat Asetovich. "MORAL EDUCATION OF STUDENTS THROUGH THE ART OF MUSIC AND SINGING." *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH* ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429 12.02 (2023): 12-16.

9. Asqarova, S. "MUSIQIY TA'LIMIDA ABU ALI IBN SINO MEROSIDAN FOYDALANISH." *Interpretation and researches* 1.1 (2023).  
10.